

KOMMUNIKATIV STRATEGIYALAR TASNIFI VA TURLARI

Ro'ziyeva Nilufar Kamtarovna

PhD student of Bukhara state university, Teacher of Foreign languages department, Bukhara state pedagogical institution,

n.k.ruziyeva@buxdu.uz

(99 0415674)

Annotatsiya: Ushbu maqola kommunikativ strategiyalarni tasniflash hamda ularning ba'zi turlarini ochib berishga qaratilgan. Kommunikatsiya jarayoni eng kamida 2ta kommunikantrning muloqotga kirishuvidan yuzaga keladi. Adresant adresatning ma'lumotlar bazasiga ta'sir ko'rsatadi. Adresat yetkazilayotgan ma'lumotni qabul qilish jarayonida ma'lumotni dekodlaydi ya'ni rasshifrofka qilish orqali tashqi plan yordamida berkitilgan tub ma'noni ochadi. Shundan a'yon bo'ladiki, nutq kommunikatsiyasi o'zida strategik jarayonni mujassamlashtiradi.

Kalit so'zlar: Motivatsiya, diskurs, kommunikant, dekodlash, strategiya, taktika.

Abstract: The article deals with communicative strategies and its types. Speaker and listener strategies involve at least two communicants. The speaker affects the knowledge of the addressee. The addressee, perceiving utterances, decodes it and extracts the deep meaning hidden behind the close-up of the meaning. Speech communication is a strategic process, the basis for which is the choice of optimal language resources.

Key words: Motivation, discourse, communicant, decoding, strategy,tactics.

So'nggi yillarda o'zining tayinlangan roliga asoslanib, u yoki bu vazifani bajaradigan kommunikatsiya strategiyalariga juda katta ahamiyat berilmoqda. Bunda kommunikatsiya vujudga kelishi uchun eng kamida ikki individ – so'zlovchi hamda tinglovchi ishtiroti talab etiladi. Ta'kidlash joizki, til o'z davrida ham insonlar tomonidan ta'sir ko'rsatish va manipulyatsiya qilish maqsadida foydalanila boshlangan. Ko'pgina tilshunos olimlarning tadqiqotlari shuni taqozo etadiki, har qanday matndagi til birliklari, xoh u so'z bo'lsin, xoh grammatik shakl yoki sintaktik struktura bo'lmasin, ularning har birining ishlatalishidan muayyan maqsad ko'zlangan bo'ladi. "Har doim bir narsani aytishning bir nech usullari, yo'llari bo'ladi, va bu yerdag'i tanlov hech qachon tasodifan bo'lmaydi"[2:153].

Ushbu maqolada biz so'zlovchining qanday usuldan foydalanmasin, u bu tanlovnvi shunchaki emas, balki aynan bir "global maqsad"ni ko'zlab va u yoki bu yo'l orqali tinglovchiga ta'sir ko'rsatish maqsadi borligini isbotlaymiz.

Kommunikativ strategiya – so'zlovchi yoki yozuvchining bosqichma-bosqichli nutqiy harakati tizimi, kommunikativ maqsadga erishish uchun muloqot jarayonida ifoda va muomala usullarini ongli ravishda tanlashning umumiyl dasturi. *Kommunikativ taktika* esa nutqiy strategiya hosil bo'lish jarayonidagi aniq nutqiy yo'l (qadam, burilish, davr); nutqiy strategiyalarini u yoki bu bosqichda amalga oshirishga muvofiq keluvchi va shu bosqichning xususiy kommunikativ vazifalarini yechishga yo'naltirilgan nutqiy harakat (nutqiy akt yoki bir necha nutqiy aktning jamlanmasi)[6:16]tushuniladi.

Demak, har qanday muloqot u yoki bu ma'lumotni yetkazibgina qolmay, muayyan ta'sir o'tkazishi, ya'ni so'zlovchi ma'lum bir muloqot uslubidan foydalanib, adresatning ko'nikmalari strukturasiga ta'sir o'tkazadi, uni kengaytiradi va shu bilan birga bu yangi tushunchani adresatning kognitiv sistemasining bir qismiga aylantiradi. Adresat esa, o'z navbatida, aytilgan ma'lumotni qabul qiladi, dekodlaydi, hamda kognitiv sistemasi bilan hamkorlikda tashqi plan orqali berkitilgan tub ma'noni ochadi.

Ko'plab tilshunoslar (Baranov A.N, Issers O.S, Karasik V.I, Krasnix N.I.) fikriga qaraganda, muloqot subyekti har qanday usulda tinglovchiga ma'lum ta'sirini ko'rsatadi [1:64]. Muloqot aktining subyekti suhbatdoshining nafaqat jismoniy, balki aqliy faoliyatini ham boshqaradi. Ta'sir ko'rsatish turlicha bo'lishi mumkin: muloqotni boshlashga suhbatdoshni undash, qandaydir faoliyatni davom ettirish yoki tugatish, diqqatni boshqa tomonga qaratish, qandaydir qaror qabul qilish. Shu asnoda so'zlovchi tinglovchining dunyoqarashini o'zgartiradi [4:284] va shu sababli, adresant yoki adresatning muayyan aktdagi pozitsiyasiga ko'ra, kommunikant boshqalar bilan bo'ladigan suhbatdagi ta'sirchanlikka aloqador bo'lgan qator sifatlarni o'zida namoyon etadi.

Nutqiy muloqotda ishtirokchilar qatnashuviga ko'ra muloqot yakka shaxs tomonidan yoki hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin, bunda nutqiy strategiya kooperativ hamda nokooperativga bo'linadi [5:390].

Kooperativ nutq strategiyasiga turli ma'lumot almashinuvchi hamda talqin qilinuvchi dialoglarni kiritishimiz mumkin. Masalan, axborot berish (bir kishi faol), fikr almashinish (hamma faol), javob qaytarilishi kutiladigan dialoglar – maslahat berish, ishontirish, iltimos qilish, nasihat qilish, hamda boshqa dialoglar – ya'ni talab qilish, buyurish kabi javobi kutilmaydigan dialoglarni ham kiritishimiz mumkin.

Nokooperativ yoki kooperativ bo'lmagan nutq strategiyalariga asosan nutqiy muloqot qonun-qoidalari buzilgan yoki, hamfikrlik, samimiylilik asosida olib borilmaydigan dialoglar – ziddiyatlar, kelishmovchilik, janjallar, tahdidlar, tajovuzkorlikning namoyon bo'lishi, g'azab, ironiya, ayyorlik, yolg'onchilik, javob berishdan qochish kabi vaziyatlarda guvohi bo'lishimiz mumkin.

Zamonaviy ilmiy adabiyotda ham kommunikativ strategiyalar muammosi, hozirgi kunda, faol ravishda o'rganilib kelinmoqda. Bunda olimlar avvalo, diskurs ishtirokchilarining maqsadini aniqlashga kirishishadi. Zero, nutqiy kommunikatsiya bu – optimal til resurslarini tanlash asos qilib olingan strategik jarayondir. Strategiya esa – kommunikantlarning maqsadlari sari olib boruvchi yo'l demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Баранов А.Н. Что нас убеждает?// Речевое воздействие и массовое сознание // А.Н. Баранов// Новое в жизни, науке, технике. Лектор. Мастерство. 1990 – №9 – М.: Знание, 1990-64 с.
2. Дейк ван Т.А., Кинч В. Стратегия понимания связного текста // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1988.- Вып. 23 – С. 153 – 211.
3. Джерелиевская М.А. Установки коммуникативного поведения: диагностика и прогноз в конкретных ситуациях // М.А. Джерелиевская; отв. ред. д-р психол. наук, проф. А.Г. Асмолов. – М.: Смысл, 2000. – 191с.
4. Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи // О.С. Иссерс. – 3-е изд., - М.: Эдиториал УРСС, 2003. – 284с.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-IYUN,2024

5. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс // В.И. Карасик; Науч.-исслед. Лаб. «Аксиологическая лингвистика». – М.: Гнозис, 2004 (ГУП Смол.обл. тип. Им. В.И. Смирнова). – 390 с.
6. Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. Екатеринбург, 1999. -С. 16.
7. Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь.-Ростов-на-Дону: “Феникс”, 2008, -С.462.